



Moxira SOBIROVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: moxira@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, professor T.Egamberdiyeva taqrizi asosida

THEORETICAL BASIS OF IMPLEMENTATION OF BLENDED LEARNING TECHNOLOGY

Аннотация

Today "Blended learning" is considered one of the promising directions of using information and communication technologies. The effectiveness of the development of educational activities is determined by the superiority of information and communication technologies, which allows to activate the forms and methods of traditional approaches to education. This article describes and compares the theoretical views of world scientists regarding the introduction of "Blended learning" technology.

Key words: Blended learning, e-learning, face to face, training courses, concepts, educational technology, self learning, benefits of blended learning.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РЕАЛИЗАЦИИ ТЕХНОЛОГИИ СМЕШАННОГО ОБУЧЕНИЯ

Аннотация

Сегодня «Смешанное обучение» является одним из перспективных направлений использования информационно-коммуникационных технологий. Эффективность развития образовательной деятельности определяется преобладанием информационно-коммуникационных технологий, что позволяет активизировать формы и методы традиционных подходов к обучению. В этой статье освещаются и сравниваются теоретические взгляды ученых всего мира на внедрение технологии «смешанного обучения».

Ключевые слова: Blended learning, смешанное обучение, электронное обучения, face to face, учебные курсы, концепция, самостоятельное обучение, преимущества смешанного обучения.

"BLENDED LEARNING" TEXNOLOGIYASINI JORIY ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

Аннотация

Bugungi kunda "Aralash ta'lim" axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri sanaladi. Ta'lim faoliyatini rivojlantirishning samaradorligi axborot-kommunikatsion texnologiyalarning ustunligi bilan belgilanadi, bu esa ta'limga an'anaviy yondashuvlarning shakl va usullarini faollashtirish imkonini beradi. Ushbu maqolada dunyo olimlarining "Aralash ta'lim" texnologiyasini joriy etish bilan bog'liq nazariy qarashlari yoritilgan va qiyoslangan.

Kalit so'zlar: Blended learning, Aralash ta'lim, elektron ta'lim, face to face, o'quv kurslari, konsepsiya, ta'lim texnologiyalari, mustaqil ta'lim, aralash ta'limning afzalliklari.

Kirish. Dunyo ilm-fanida ta'lim olishning internet texnologiyalariga asoslanganligini inobatga olgan holda aralash ta'limni qo'llash metodikasini ishlab chiqish ahamiyatga molik masalalardan biri hisoblanadi. Aralash ta'lim zamonaviy ta'limning nisbatan yangi va tobora ommalashib borayotgan shakli sanalib, onlayn o'quv materiallari hamda o'qituvchi rahbarligida guruhda ta'lim olishga asoslangan o'qitish shaklidir.

Qayd etish lozimki, boshqa ko'plab pedagogik texnologiyalardan farqli ravishda, aralash ta'lim o'ziga xos mualliflikka ega emas va mavjud o'qitish usullari hamda tamoyillarini o'zgartirishga bo'lgan ko'plab urinishlar natijasida rivojlandi. Aralash ta'limning bunday o'z-o'zidan va ko'p omilli bo'lib rivojlanishi ushbu texnologiyani tahlil qilishda qiyinchiliklarni keltirib chiqardi, bu esa aniq ta'rifni shakllantirishga urinishlardan boshlandi.

Aralash ta'lim haqida turli xil ta'riflar va fikrlar ko'p bo'lganligi sababli Blended texnologiyasini o'rganish va o'qitish bilan oddiygina aralashtirish yoki bo'lmasa, elektron ta'limni face to face (an'anaviy ta'lim) ko'rsatmalari bilan birlashtirishdan ko'ra mazmunliroq ta'rifni ishlab chiqish zarurati tug'ildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Doktor Margaret Driskoll aralash ta'limning ta'rifida to'rtta alohida konsepsiyani ajratadi. Birinchi konsepsiyada aralash ta'limni "Ta'lim maqsadiga erishish uchun veb manbaga asoslangan texnologiyani birlashtirish yoki aralashtirish"[1] deya

ta'riflaydi. Boshqa mualliflar Driskollning birinchi ta'rifiga muvofiq izoh berishadi. Misol uchun, Garri Singx "Aralash ta'limning samarali dasturlarini yaratish" nomli tadqiqotining kirish qismida: "... aralash ta'lim modellari turli xil yetkazib berish vositalarini birlashtiradi. Ma'lumotlarga ko'ra, aralash ta'lim ko'pgina imkoniyatlar bilan birga samarali takliflarni beradi"[2], – deb izohlagan. Doktor Margaret Driskoll o'zining ikkinchi konsepsiyasida aralash ta'limni: "Turli pedagogik yondashuvlarni (masalan, konstruktivizm, bixeviorizm, kognitivizm) o'qitish texnologiyasi bilan yoki texnologiyasiz optimal ta'lim natijalarga erishish uchun birlashtirilishidir"[3], – deya ta'riflaydi.

Charlz Grexam "Aralash ta'lim tizimlari: ta'riflar, hozirgi tendensiyalar va kelajak yo'nalishlari"ning kirish qismida ta'kidlaganidek, bu ikki tushunchani "Blended learning shunchalik keng ta'riflanganki, aralash ta'lim deyarli barcha o'quv tizimlarini qamrab oladigan muammodan aziyat chekadi"[4].

Doktor Margaret Driskoll uchinchi konsepsiyada aralash ta'limni "har qanday ta'lim texnologiyasini (videoyozuvlar, kompakt disklar, veb ta'lim, filmlar) o'qituvchi rahbarligidagi an'anaviy ta'lim bilan uyg'unlashuvdir" deb aytadi[5]. Aksariyat mualliflar ushbu ta'rifni qo'llab-quvvatlaydilar, masalan, Grey Xarriman o'zining "Aralash ta'lim nima?"[5] nomli maqolasida "Blended learning onlayn ta'limni an'anaviy ta'lim bilan birlashtiradi" deb ta'kidlagan. Aralash ta'limning maqsadi

o'qitish usullarini birlashtirish orqali samarali va natijali ta'limni ta'minlashdir"[6]. Bundan tashqari, Djudit Smit o'zining "Aralash ta'lim: eski do'st yangi nom oladi" nomli maqolasida ta'limni masofaviy o'qitish usulini texnologiya (televideniye va Internet kabi yuqori texnologiyali, ovozi pochta yoki konferensiya aloqa kabi past texnologiyali) va an'anaviy ta'lim bilan birlashtirishdir". Sodda qilib aytganda, Rochester texnologiya instituti "The Blended learning Pilot Project" 2003-2004 o'quv yilining yakuniy hisobotida "aralash ta'lim eng yaxshi onlayn ta'lim bilan eng yaxshi an'anaviy ta'limni birlashtirishga yo'naltirilgan"[4] deya ma'lumot berdi. Yangi Janubiy Uels ta'lim va tarbiya Departamenti tomonidan e'lon qilingan "Aralash ta'lim" maqolasida yuqoridagi mualliflarga o'xshab "aralash ta'lim – bu o'qitish bo'lib, onlayn va an'anaviy ta'lim yondashuvlarni uyg'unlashtiradi", – deya ta'kidlangan. Shuningdek, Richard Vus ham aralash ta'lim an'anaviy ta'lim va onlayn OAVlarning kombinatsiyasi ekanligini, o'rganish joyini sezilarli darajada qisqartirishga olib kelishini ta'kidlaydi. Karla Gernxam va Robert Kaletolar aralash ta'lim yoki gibrid kurslarning eng yaxshi xususiyatlari ya'ni "faol mustaqil ta'limni rivojlantirish va sinfda o'qitish vaqtini qisqartirish uchun an'anaviy hamda onlayn ta'limning eng yaxshi xususiyatlarining uyg'unlashuvi"ni aniqladilar.

Alfred Rovai va Hop Jordan "Aralash ta'lim va jamiyat hissi: an'anaviy ta'lim va to'liq onlayn bitiruvchi kurslarning qiyosiy tahlili" nomli maqolasida "aralash ta'lim an'anaviy va onlayn ta'lim muhiti bilan davomli qarama-qarshi uchlarda joylashgan bo'lishi mumkin"[9] deb ta'kidlaganlar.

Kolis va Munen fikriga ko'ra, aralash ta'lim an'anaviy va onlayn ta'limning gibrididir, shuning uchun o'qitish ham sinfda, ham onlayn tarzda amalga oshiriladi, onlayn komponent sinfda an'anaviy ta'limning tabiiy davomiga aylanadi"[10]. Elektron ta'lim markazi kutubxonasi aralash ta'limni "an'anaviy ta'lim, jonli elektron ta'lim, mustaqil ta'lim, shuningdek, ommaviy axborot vositalari yordamida yaratilgan ta'limiy yechim – "sehrli aralashma!" yoki "go'zal aralashma!", – deb ta'riflaydi. Avstraliya Milliy Ta'lim Boshqarmasining Moslashuvchan ta'lim maslahat guruhi tomonidan yaratilgan "Elektron ta'limda qo'llaniladigan asosiy atamalar ta'riflari" asarida aralash ta'limga quyidagicha ta'rif beradi: "Elektron ta'lim boshqa moslashuvchan ta'lim va an'anaviy ta'lim shakllarini birlashtirgan ta'lim metodidir".

Doktor Margaret Driskoll to'rtinchi konsepsiyada aralash ta'limni "ta'lim va ishlashning uyg'un ta'sirini yaratish uchun o'qitish texnologiyasini haqiqiy ish vazifalari bilan aralashtirish yoki birlashtirishdir", – deya ta'kidlaydi. Ushbu to'rtinchi ta'rif korporativ ta'limning bir qismi sifatida onlayn aralash ta'limning mashhurligi haqida taassurot uyg'otadi. "Aralash ta'lim – bu korporativ ta'limning so'nggi zamonaviy nomi. Elektron ta'limning boshqa o'qitish turlari bilan uyg'unlashuvidir". Driskollning birinchi va uchinchi konsepsiyalarini birlashtirib, aralash ta'limni ta'riflagan boshqa mualliflar ham bor. Royer Ta'lim va Akademik Texnologiyalar markazi aralash ta'limni "Ta'limning bir nechta strategiyalari va metodlarini turli xil vositalar bilan uyg'unlashtiradi. Zamonaviy til bilan aytganda, ta'lim strategiyalari va ommaviy axborot vositalari odatda o'zida an'anaviy va onlayn (masofaviy) ta'limning aspektlarini o'z ichiga oladi, ko'plab o'quv strategiyalari yoki o'quv aspektlarini birlashtiradi", – deb ta'riflaydi. "The Node's Guide to Blended Learning: Getting the Most Out of Your Classroom" darsligida Node Learning Technologies Network aralash ta'limni ta'limdan "bir nechta strategiyalar, usullar va yetkazib berish tizimlari integratsiyasi" sifatida foydalanishni nazarda tutadi. "Yaxshi o'qituvchilar har doim o'z maqsadlariga erishish uchun strategiyalar, usullar va ommaviy axborot vositalarining kombinatsiyasidan foydalanganligi

yangilik emas. E'tiborli jihati shundaki, bugungi zamonaviy internet vositalari muloqot, o'zaro ta'sir va hamkorlikda o'qitishni ilgari imkoni bo'lmagan usullar bilan osonlashtirishi mumkin. Raqamli ta'lim texnologiyalarning nisbatan qulayligi o'qituvchilar ularni o'quv resurslari bilan birlashtirishi ham yana bir yangilik sanaladi".

Ba'zi mualliflar "aralash ta'lim" tushunchasini ta'riflashda "aralash (Blended)" so'ziga e'tibor qaratadilar. "Oksfordning qisqacha lug'ati"ning 8-nashrida "aralashtirish" bu "uyg'un aloqani shakllantirish, bir butun bo'lish" degan ma'noni anglatadi. Piter Isaakson ta'kidlaganidek, aralash ta'limning turli modalliklarini "aralashtirish" emas, balki "aralashtirish" usullari va strategiyalariga e'tibor qaratish kerak. Isaakson aralashtirishning "yaxshi shotland viskisi kabi..." analogdan foydalanadi. Royer Markazi 2004-yilda aralashtirishning qo'shimcha analoglarini taklif etadi: "gurmanlar uchun qahva, vino, gibrid transport vositalari va, hatto, benzin bilan taqqoslaganda, har bir aralashma jozibador yaxlitlikni tashkil etuvchi turli xil tanlovlarni taklif etadi". Ushbu o'xshashliklar bilan bog'liq holda Royer Markazi aralash ta'lim har xil ta'mga ega bo'lishi mumkinligini tushuntirishda davom etadi, bir turdagi taom uchun turli retseptlar bo'lgani kabi "qanday qilib aralashtirish"da yagona yondashuv yo'q. "Muvaffaqiyatli aralash ta'lim muvaffaqiyatli retsept sifatida har bir o'quv tadbirining o'ziga xos maqsadini qo'llab-quvvatlash uchun bir qator qo'shimcha mahsulotlarni aralashtiradi". Shunday qilib, Isaakson ta'kidlaganidek, bugungi kunda taklif qilinayotgan "aralash ta'lim" "... yaxshi shotland viskisi kabi..." aralashtirilgan emas, balki "salat kabi..." qo'shilgandir. "Aralash ta'lim" hamda "Qo'shma ta'lim" o'rtasidagi farqni aniqlash zarur. "The Node's Guide to Blended Learning: Getting the Most Out of Your Classroom" darsligida "aralash ta'lim ko'p narsalarni o'z ichiga olishi mumkin, hech qanday ko'rsatma va retsept mavjud emas".

Tahlil va natijalar. Nihoyat, aralash ta'limning bir qator konsepsiyalari mavjud bo'lsa-da, Martin Oliver va Keyt Triggvellar o'zlarining "Can "Blended learning" Be Redeemed" maqolasida bu atamaning qo'llanilishiga tanqidiy yondashadilar. Ularning ta'kidlashicha, "aralash ta'lim" atamasi "noto'g'ri ta'riflanadi va nomuvofiq qo'llaniladi, holbuki ommaviyligi oshib borsa-da, aniqligi mavjud emas". Aralash ta'lim ta'riflarida, "o'quvchilar nuqtayi nazaridan tahlil" mavjud emas. Aralash ta'lim sharoitida o'quvchilarni o'qitish tajribasidagi farqlarni chuqur tahlil qilish lozim. "Blended learning – bu o'quv metodlarining birikmasi". Tadqiqotchi Protektor 2003-yilda ilmiy ishida "Blended learning"ni "turli xil o'qitish usullari, o'qitish modellari va o'quv uslublarining samarali kombinatsiyasi" – deya ta'riflaydi.

Garrison va Kanuka 2004-yilda Blended learningni shunday ta'riflashadi: "An'anaviy ta'lim bilan onlayn ta'limni xayolan integratsiya qilishdir".

"Aralash ta'lim" atamasi amaliyotchilar va tadqiqotchilar orasida tez-tez qo'llaniladi. Aralash ta'lim deganda nimani anglaymiz? Bugungi kunda aralash ta'lim atamasi tez-tez ishlatilsa-da, haqiqatdan nimani nazarda tutganligi aniq emas edi. Oliver va Trigvel o'zlarining tanqidiy sharhlarining birida: "Aralash ta'lim" atamasi ikki yoki undan ko'p narsani talab qiladi, keyin shu turli narsalarni aralashtirish mumkin"[8], – degan xulosaga kelishadi.

Aralash ta'lim termini 1990-yillarning oxirida paydo bo'lgan bo'lsa-da, tadqiqotlar va amaliyotlarni o'tkazish yo'llarini hamda umum e'tirof etilgan ta'riflarni qidirish preparadigmatik sifatida tavsiflash mumkin edi. Aralash ta'lim amaliyoti va ta'sirini tushunish uchun aniq va mukammal ta'riflarga, model va konsepsiyalarga ehtiyoj mavjud. Bu esa oldingi tadqiqotlarni yangi sharoitlarga joriy etish,

hamkorlikdagi an'analarni rivojlantirish hamda tadqiqot g'oyalari chuqurroq o'rganish imkonini beradi[8].

ko'pgina olimlar ilmiy tadqiqotlarining tadqiq obyekti bo'lgan va bunday izlanishlar davom etmoqda.

Xulosa. Demak, masofaviy ta'lim endigina kirib kelgan mamlakatlarda ham "Blended learning" texnologiyasi

ADABIYOTLAR

1. Australian National Training Authority, Definitions of Key Terms Used in e-learning, 2003.
2. Bersin & Associates. 2003. Blended Learning: What Works? An Industry Study of the Strategy, Implementation, and Impact of Blended Learning. San Francisco, CA: Pfeifer.
3. Bonk, C.J. & Graham, C.R. 2004. Handbook of blended Learning: Global Perspectives, Local Designs. San Francisco, CA:Wiley.
4. Colis, B. and Moonen, J., Flexible Learning in a Digital World: Experiences and expectations, 2001
5. Driscoll, M. Blended learning: Let's get beyond the hype. e-Learning, Learning and Training Newsline 2002.
6. Harriman, G. 2004. What is blended learning. E-learning Resources.
7. H.W.Fowler, F.G. Fowler, E. Allen Robert, The Concise Oxford Dictionary of Current English. – Print book : English : 8th ed. – Oxford : Clarendon Press ; New York : Oxford University Press, 1990.. The Concise Oxford dictionary of current English. (1990 edition) | Open Library
8. Kane, G. C., & Alavi, M. (2007). Information technology and organizational learning: An investigation of exploration and exploitation processes. Organization Science, 18(5), 796–812. [https://doi.org/ 10.1287/orsc.1070.0286](https://doi.org/10.1287/orsc.1070.0286)
9. New South Wales Department of Educational and Training. Blended learning, Learning technologies, 2005
10. Node Learning Technology Network. 2001. The Node's Guide to Blended Learning: Getting The Most Out of your Classroom and the Internet. Available at: <http://thenode.org/guides/blended/blended.pdf>.
11. Oliver, M., & Trigwell, K. Can 'blended learning' be redeemed? E-learning and Digital Media, 2(1), 17–26., 2005
12. Protector C.T. Blended Learning in Practice, available at: www.ece.salford.ac.uk/proceedings/papers/cp_03rtf